

## TEKNOLOGIYA FANI O`QITUVCHISINING TEKNOLOGIK MADANIYATIGA QO`YILADIGAN TALABLAR

*Abduraxmonova Maloxat Alisher Qizi*

*A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti,  
Texnologik ta`lim y o`nalishi I bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada texnologiya fani o`qituvchisining texnologik madaniyatiga qo`yiladigan shaxsiy, kasbiy sifatlarni aniqlash va ularni rivojlantirishga oid tushunchalar bayon qilinadi.

**Kalit so`zlar:** kasb, o`qituvchi, ijtimoiy, avlod, me'mor, yoshlar, ta'lim, tarbiya, inson, g`oya, siyosiy, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur, qonuniyat, mehnat, hunar.

Mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan ta`lim tizimiga va qolaversa, yoshlar ta`lim-tarbiyasiga aloxida e`tibor qaratilib, “Yangi O`zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g`oyasi umumiy o`rta ta`lim maktablari va butun o`qituvchi va murabbiylar mas`uliyatini yanada oshirib yubardi. Shunday ekan bunday talablarga javob beradigan zamonaviy o`qituvchilardan qanday texnologik madaniyat talab etiladi va buning uchun bugingi kun o`qituvchiaridan qanday shaxsiy va kasbiy sifatlar talab etiladi? Maqolada aynan shu savollarga oydinlik kiritishga qaratilgan.

Zamonaviy o`qituvchining texnologik madaniyatining yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko`rsatkichi hisoblanadi.

O`z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi – o`qituvchida:

- pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi;
- ulardan kasbiy faoliyatida foydalanaolishi;
- o`quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik madaniyat tizimi quyidagi o`zaro bir-bir bilan bog`liq bo`lgan asosiy kasbiy kompetentlardan iborat: ya`ni;
- pedagogik insonparvarlik talablariga bo`ysunishi;
- kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi;
- o`qituvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- ta`lim muhitiga yangilik kiritishi;
- o`z fanini mukammal bilishi;
- xorijiy tillardan birini bilishi;
- pedagogik qobiliyatga ega bo`lish;
- pedagogik texnika sirlarini puxta egallash talab etiladi.

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi kompetentli o'qituvchi bo'lishni talab etadi.

**Kompetentlik** - sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatleri, kvalifikasiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati hisoblanadi.

**Kompetentlik turlarini to'rtga bo'lish maqsadga muvofiqdir:**

1. Kasbiy kompetentlik,
2. Shaxsiy kompetentlik,
3. Umummadaniy kompetentlik va,
4. Maxsus kompetentlikka bo'linadi.

**Kasbiy kompetentlikning shakllanish bosqichlari:**

1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

**Shaxsiy kompetentlik:**

- muloqatchanlik;
- bag'rikenglik;
- yetakchilik;
- faollik va tashabbuskorlik;
- moslashuvchanlik;
- sog'lom turmush tarziga amal qilish;
- ma'suliyatlilik;
- ishchanlik;
- insonparvarlikka ega bo'lish tushuniladi.

**Umummadaniy kompetentlik:**

- ma'lumotli;
- madaniyatli;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- milliy madaniyatga ega bo'lish;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;

- boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish.

**Maxsus kompetentlik:**

- faniga doir maxsus metodlarni bilish;
- ta'limni tabaqalashtirish;
- o'quvchilar ehtiyojini bilish;
- turli yosh xususiyatlarini bilish.

**Didaktik kompetentlik:**

- o'qitish muhitini yaratish,
- mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish,
- o'quv jarayoni boshqarish,
- o'quvchilarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash,
- o'quvchilarga motivasiya berish va yordam ko'rsatish,
- o'quvchilar bilimni anglash va ularni rivojlantirishlar tashkil etadi.

**Texnologik madaniyatiga qo'uyiladigan shaxsiy va kasbiy sifatlar:**

- o'qituvchilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika,
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi,
- muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri,
- tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga

oshirish, bu jarayonda xulq-atvomi va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fani o'qituvchisining texnologik madaniyatiga qo'yiladigan talablarni bilish, ulardan ish faoliyati davomida samarali foydalanish asosida o'zining shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirib boriladi, kompetentli o'qituvchi sifatida shakllanadi hamda sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar bo'yicha etarli mahoratga ega bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. Ukuv-metodik qo'llanma. - T.: "Sano-standart", 2015. - 120 b.
2. Шарипова Э.Ф. Формирование общетехнической компетенции будущих учителей. [Текст]: монография/ Э.Ф.Шарипова. - Челябинск: «Издательство» Челябинский государственный педагогический институт, 2015. - 186 стр.
3. Ismoilov T.J. Texnologik madaniyat va kompetentlik asoslari. Oquv-uslubiy majmua. Jizzax, 2021 yil. 28-30 betlar.
4. Murtozaev M.Z. Texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini amaliy saviyasini oshirishning uslubiy pedagogik asoslari. Monografiya. -T.: «Fan vatexnologiya», 2017, 120 bet.